

**DARSLARDA O'YINLARDAN FOYDALANISH**

*Andijon viloyat boshqarmasi Jalaquduq tumani MMTB bo`limi  
32-umumta'lim maktabining fransuz tili fani o'qituvchisi Kamolova Barchinoyning  
“Darslarda o'yinlardan foydalanish” mavzusida yozgan*

# **METODIK TAVSIYASI**

- 1 Muqova
- 2 Sarlavha
- 3 Annotatsiya
- 4 Mundarija
- 5 Kirish
- 6 Asosiy qism
- 7 Xulosa
- 8 Foydalilanigan adabiyotlar

**DARSLARDA O'YINLARDAN FOYDALANISH****Annotatsiya**

Ushbu metodik tavsiya maktablarda fransuz tilini o'qitishda o'yinlar bilan darsni yanada qiziqroq tashkil etishda yetakchi qo'llanma sifatida qo'llaniladi,yani o'quvchi o'ynab turib o'ylaydi.Ushbu metodik qo'llanma o'z ichiga bir qancha grammatik,fonetik va leksik o'yinlarni o'z ichiga oladi.

Mazkur qo'llanma o'qituvchilarga darsni samarali tashkil etishda yordam berad va o'quv qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

Ushbu metodik tavsiyadagi yangi metodlar o'quvchilarga o'ynab turib ham o'ylashni o'rgatadi.

**Mundarija**

- 1 Kirish**
- 2 Asosiy qism**
- 3 Xulosa**
- 4 Foydalilanigan adabiyotlar**

**KIRISH**

Ta'lim jarayonini yangi mazmun va shaklda yo'lga qo'yish masalasi har bir fan ta'limiga taalluqlidir.O'quvchilarni noana'naviy usullarni ilg'or pedagogic texnologiyalarni ishlab chiqish va ommalashtirish xorijiy tillarnio'qitishniyo'lga

quyish eng ahamiyatli dolzarb masalalardan hisoblanadi.Har bir o'qituvch itil o'qitish jarayonida ta'lif oluvchilarning shaxs sifatida shakllantirishi rivojlantirishi,bilim olishi va uni egallashiga sharoit yaratadi.Til o'rghanish asoida o'quvchilarda fanni o'rganib,fransuz tilining grammatikasini bilgan holda,erkin muloqot qilishi ,o'z fikrini bildira olishi muhim ahamiyat kasb etadi.Shuning uchun fransuz tili darslarini interaktiv metodlar innovatsion texnologiyalarni qo'llab darsni tashkil qilish zarur.

### **Asosiy qism**

Ta'lif jarayonida o'yinlardan foydalanishning samarasi katta. Yangi mavzu yoki o'tilgan mavzuni mustahkamlashda o'yinlardan foydalan-ganda yaxshi natijaga erishiladi. Bunda o'quvchilarda erkin fikrlash, mustaqil izlanishga rag'bat paydo qiladi. O'quvchilar yangi bilimlarini mustaqil o'zlashtiradilar, o'quvchilarda jamoa tuyg'usini shakllantiradi va ularning tashabbuskorligini oshiradi. O'yinlar tufayli darslar qiziqarli bo'ladi.

Men ham o'z pedagogik faoliyotimda o'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olib 5-6-sinflarda fransuz tilini o'rgatish jarayonida turli hil o'yinlardan foydalanaman. Ma'lumki chet tillarini o'qitishda o'quvchilarni nutqini o'stirish, yodlangan so'zlar, o'zlashtirilgan grammatik qoidalar asosida gaplar tuzish asosiy o'rinni tutadi. Bu borada barcha sinflarda zanjir o'yinidan foydalanish yaxshi samara bermoqda.Masalan, „Les objets scolaire” mavzusida zanjir o'yinidan foydalanaman. O'quv qurollariga oid so'zlar aytildi, kimki o'quv qurollaridan tashqari boshqa so'z aytgan o'quvchi o'yindan chiqadi. O'yin jarayonida o'zim ular qatori birga o'ynayman, bu esa o'zaro iliq munosabatni yuzaga keltiradi. Har bir o'quvchi g'olib bo'lishni hohlaydi, shuning uchun o'rgatgan har bir mavzuni yaxshiroq o'rghanishga harakat qiladi. Bu esa mening yutug'im. O'yinlarning asosiy vazifasi ishtirokchini noqulay vaziyatga tushurish va undan chiqib ketish yo'llarini topish ya'ni individual fikrlashga o'rgatadi. O'quvchi dars davomida befarq bo'lolmaydi va ijodiy fikrlaydi, o'quvchiga tashkilotchilik qobiliyatini o'stiradi, fanni o'zlashtirishda va o'quvchilarda ishonch tuyg'ularini shakllantiradi. O'yinda o'quvchiga qoniqarli yoki qoniqarsiz baho qo'yib bo'lmaydi, bolaning topqirligi uchun yaxshi yoki a'lo baho qo'yishi mumkin. O'yinlar doimo erkin, qiziqarli va xushchaqchaq ruhda o'tmog'i lozim. 6-sinfda antonim o'yinidan foydalanaman. Bunda qatnashchilar doira shaklida o'tirishadi. O'yin boshqaruvchisi oldindan antonim so'zlarni tayyorlab olishi kerak.

Grand-petit

Jolie-laid

large-etroit

Bon-mauvais

gros-maigre

O'yin boshqaruvchi ishtirokchilarga to'pni otish bilan boshlaydi. To'pni har uzatganda bir so'z aytishi kerak, ishtirokchi esa uning antonimini tezda aytishi kerak, aytolmagan o'yindan chiqadi.

So'z topish o'yini


Bu o'yin o'quvchilarni so'z boyligini oshiradi, tezkorlikka va hozirjavoblikka o'rgatadi. O'quvchi bir so'zlarni topib aytadilar, so'z topa olmagan o'quvchi yutqazadi va o'yindan chiqariladi. Masalan: o'qituvchi A harfini aytadi o'quvchilar navbatdan Age, ane, aout, arbre, automne, avec, avril.


B-bras, ballon, beaucoup, bon, bleu, bruit.

C-cahier, cause, cadeau, ciel, coq, cour. so'zlarini aytadilar.

### **Klaster usuli**

Klaster usuli mavzu yuzasidan erkin va aniq fikrlashga yordam beradi. 1. mavzu yuzasidan kalit so'z yoki, fikrni doskaga yozib qo'ying. 2. Shu mavzuga mos bo'lgan so'zlar va fikrlar yoza boshlang.





### **Uchdi uchdi vole vole**

Bu o'yin o'quvchilarni eshitish qobiliyatini yaxshilaydi bunda o'quvchilar hammasi o'rnidan turadi o'qituvchi turli narsa, buyum hayvon yoki qushlar nomini fransuz tilida aytadi, qushlar nomi aytalganda qo'llarini yonga ko'tarib qushning uchishi harakatini bajaradi.

Vole vole l'oiseau vole

Vole vole la pupitre vole

Uchmaydigan narsa aytalganda qo'llarini pastga tushuriladi, adashgan o'quvchi o'yinni tark etadi. 5-sinflarda „Qu'est -ce qu'il n'y a pas sur la table” o'yini. Stol ustiga o'ndan ortiq mavzuga oid rasmlar qo'yamiz. Fermez vos yeux. [ko'zlarining yumning] 1ta buyum yoki rasm olib berkitiladi. Ouvrez vos yeux (ko'zlarining oching). Qu'est -ce qu'il n'y a pas. La regle. 7-sinflarda gaplarni kengaytirish o'yini. 1ta o'quvchi 1ta gap aytadi. 1 o'quvchi- Je vais a l'école. 2-o'quvchi-Je vais a l'école avec mes amis.

3 o'quvchi Je vais a l'école avec mes amis en bus. 4-o'quvchi Je vais a l'école avec mes amis en bus noire. 5-o'quvchi Je vais a l'école avec mes amis en bus noir chaque jour.

**Yana Qu'i est-ce?**

1.kishi tashqariga chiqib turadi.Sinf bilan kelishib, 1 o'quvchi tanlashadi tashqaridagi o'quvchi kiradi. Tanlangan o'quvchini topishi kerak..

C'est personne femme au homme? C'est un garcon au une fille? Un garcon.

Il habite loin de l' é cole? Oui

Il porte un manteau blanc?-Oui

Il a un chapeau noir ?- non

Il aun chapeau blanc? –oui.

C'est Bekzod ?-oui.

Bu o'yinda ham so'z boyligi oshib boradi. Yoki biror buyumni (meva, mebel, sabzavotni) berkitish mumkin.

C'est un fruit?

C'est un lé gumes?


On peut manger?

C'est un rouge?

Onpeut porter? Etc.

**La dictée imagination.**

Il y a une grande maison, a coté de la maison il y a une rivière et les arbres, sous les arbres il y a les herbes et un enfant. Dans la rivière il ya des poissons, il fait beau le soleille brilles, le ciel est bleu, les oiseaux volent.



O'quvchi o'yinda qancha faol bo'lsa, mashg'ulot samaradorligi ortadi ya'ni yaxshi tushunadi. O'yin orqali o'qituvchi quyidagi muvaffaqiyatga erishadi.

-o'tilgan mavzuni yaxshi eslab qoladi

-O'quvchilarni fanga munosabati ijobiy bo'ladi.

-O'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatadi va muammoni yechimini topishni o'rgatadi.  
-darsda o'zini-o'zi baholay oladi.O'ziga ishonch tuyg'usini oshiradi.  
Tashabbuskorlikni oshiradi. Jamoa tuyg'usi shakllanadi.

Hozirgi ta'lim tizimida bilimni egallashning yangi konseptsiyasi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni turli usullarni qo'lashni taqozo etadi. Ta'lim jarayonini 1-tizimdayoq uni tashkil etuvchi elementlarga quyidagilar kiradi.;O'quv maqsadi, kutayotgan natija, ta'lim metodi va mazmuni.

Chindan ham o'yinlar orqali dars qiziqarli bo'ladi va oson tushuniladi. O'yin orqali darsni mustahkamlash eng yaxshi usul deb hisoblayman.

O'qituvchi o'z oldiga o'quvchilarga bilim berishda buyuk kelajakni yaratuvchisi,yuksak ma'naviyatga ega barkamol avlodni tarbiyalashni maqsad qilib oladi.Ta'lim beruvchi yangi,samarador,takomillashgan usul va uslublarni yaratish,uni tajribada sinash va shu jarayonda yanada mukammallahsgan yo'nalishini hosil qilishdan iboratdir.Ta'lim jarayonini yangi mazmun va shaklda yo'lga qo'yish masalasi har bir fan ta'limiga taalluqlidir. Maktablarda chet tilini o'qitishning maqsadi o'quvchilarda o'rganilayotgan tilning ichki imkoniyatlari va uning tasviriy vositalaridan nutq jarayonida samarali va unumli foydalanish ko'nikmalarini turlicha yo'sin shakllarda ifodalay olish malakalarini xosil qilishdan iborat.Mana shu maqsadni amalga oshirish yo'lida metodist olimlar,ilg'or tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilar,ijodkor muallimlar yangi metodik usullarni yaratish,sinab ko'rish,ommalashtirish uchun izlanishlar olib bormoqdalar.Negaki o'qishning noan'anaviy usullarini,yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ommalashtirish chet tili ta'limini yo'lga qo'yishga eng axamiyatli va dolzarb masalalardan sanaladi.

Ilmiy bilim va xulqiy tarbiyani o'quvchilarga yetkazish vositalaridan biri darsdir.O'qituvchi-o'quvchi munosabatlaridan iborat bo'lgan dars mashg'uloti ta'lim tarbiyani turli usul va vositalar bilan yetkazish jarayoni bo'lgani tufayli pedagoglar orasida zamonaviydars qanday bo'lishi kerakligin xususida bot-bot turli fikrlar o'rtaga tashlanadi.Bizningcha zamonaviy dars quyidagicha talablarga bo'linadi;

- o'quv va tarbiyaviy maqsadlarni aniq yo'lga qoyish;
- tarbiyaviy maqsadlar mazmuniva uslublarni zamonaviy fanva texnika darajasiga muvofiqlashtirish,fanning asosiy qoidalarini izlash yo'li bilan ochib berish;
- fan oldida turgan yangi muammolarni,uning istiqbolini yoritish;
- o'quvchilarning bilim faolligini rivojlantirish,bilimlarni mustaqil o'rganish usullarini qurollantirish;
- talim va tarbiya tamoyillarini uzviy olib borish uchun o'rganilayotgan fan[til] materialini hayotga,mavjud voqelik hamda muxitga mos bo'lishini ta'minlashdan iborat.
- tushunchalarining amaliyotda qo'llashuchunnsharoitlar yaratilishi;

-o'qitish usullarini turli usullarda taklif etilishi;  
 -motivatsiya yuqori daraja bo'lishi;  
 -o'tilgan materialarning yaxshi eslab qolinishi;  
 -muloqotga kirishish ko'nikmalarini takomillashuvi;  
 -o'z-o'z o'zini baxolashning o'sishi;  
 -o'quvchilarning fan mazmuniga, o'qitish jarayoniga bo'lgan ijodiy munosabati;  
 -mustaqil fikrlay oladigan o'quvchilarning shakllanishiga yordam berish;  
 -nafaqat mazmunni o'zlashtirishga,balki tanqidiy va mantiqiy fikrlashni ham rivojlantirishga yordam berish kerak;  
 -muammolar yechimini topish ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.  
 Albatta bunday darslarda o'qituvchining o'zidan ham chuqur fikrlash qobiliyati va muammolar yechimini topish ko'nikmalari talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda bugungi davr pedagogdan o'z ustida jiddiy ishlashni,pedagogik maxoratni rang-barang va ko'p qirrali usullar bilan boyitishni talab qiladi.Negaki pedagogning asosiy vazifasi yoshlarni mustaqil fikrga ega mutaxasis kadrlar bo'lib kamol topishiga sharoit yaratishdan iboratdir.

Men ham o'z pedagogik kuzatishlarimda o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olib turli o'yinlardan foydalanaman.An'anaviy darsdan farqli o'laroq bunday darslarda bolalar o'ynab turib o'ylaydilar,o'ylab turib o'ynaydilar.Ma'lumki chet tillarini o'qitishda o'quvchilar nutqini o'stirish,yodlagan so'zlar o'zlashtirilgan grammatik qoidalar asosida gaplar tuzish asosiy o'rinni tutadi.

### **Dialog tuzish orqali o'quvchini tez fikrlashga nutqini rivojlantirishga o'rgatamiz;**

-Bonjour .Comment tu t'appelles?  
 -Bonjour.Jem'appelle Lea.  
 -Comment ca va?  
 -Merci ca va bien et toi?  
 - Pas mal.  
 -Quel age –as tu?  
 -J'ai 8ans.etc

DOMINO o'yini grammatik mavzularni o'rgatishda o'quvchilarga yengillik yaratadi.Masalan sinf ikki gurux ROUGE va VERT ga ajratiladi. Ega ko'k,kesim qora ranglarda bo'ladi. Artikl va qo'shimchalarni ularning kelish o'rniga qarab turli ranglarda beriladi.O'quvchilar bu artikl va qo'shimchalarni xuddi domino o'yinida bo'lganidek kerakli o'rinnarga joylashtirishlari lozim. Agar o'quvchi otning qaysi rodda birlik yoki ko'plikda ekanligini bilsa domino o'yinini muvaffaqiyatli davom ettira oladi. Articl partitif mavzusi bo'yicha de de la de l' du des artikllari qizil yashil ranglarda yozilib o'rnashtiriladi.Magnit doskaga qo'yilgan sanalmaydigan otlar oldida artikllar qo'yiladi.

Mon pere achete du pain.

Ma mere achete du sucre.

Je mange de la viande.

Nous buvons de l'eau

Bu o'yin o'quvchilardan tezkorlik va zukkolikni talab qiladi.Bu o'yindan kishilik olmoshlarini,fe'l qo'shimchalarini o'rganishda ham foydalansa bo'ladi.Ayni damda o'quvchilar ranglar bilan,ya'ni ularning fransuz tilidagi muloqoti bilan tanishadilar.Bu bilan lug'at boyliklarini orttirish ham amalga oshirilad

### **Xulosa**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim siyosatining muhim maqsadlaridan biri o'quvchi yoshlarni har tomonlama barkamol yetuk insonlar qilib tarbiyalashdir. Buning uchun avvalo o'quvchilar yaxshi a'lo baholarga o'qishlari kerak. O'quvchini darsga jalb qilishning yagona yo'li o'yinlar tashkil etish .Bunda o'quvchi noynab turib o'ylaydi.Xulosa qilib aytganda oyinlar bilan dars tashkil etilganda o'quvchino'zini ndoimon erkin tutadiva xushchaqchaq ruhda bo'ladi.O'yin jarayonida o'qituvchi ham bevosita birga o'ynaydi va kayfiyati ko'tariladi.

Bu mavzuning vazifasi shundan iboratki, o'quvchi darsda befarq qololmaydi,noqulay vaziyatdan ham chiqa olishni o'rganadi,gurux bo'lib ishlaganda bir birini xurmat qilishni o'rganadi. Bu mavzu orqali o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga yani drsni to'laqonli tushuntirishga erishadi

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Jouer,communiqué,apprendre Francois Weis Hashette
2. A l'heure des loisirs Irina Akopova Tuxulova
3. Le francais en deux ans A.E.Anguelevich/ S.P.Zolotnitskaya
4. Histoire2 Jean Luc Carton Frederic Gugelot
5. Salut. Guide pedagogiques Sh.Nishhonboyev. E.Ukkiyev
6. En avant la musdique J Blanc P Lederien
7. Hirondelle 4 Guide pedagogique S.Raxmonov.A.Nosirov
8. Le voyage en 8 Guide pedagogique Z.Abdushukurova Kh.Youssouopov
9. Posobiye po analiticheskому чтению на французском языке L.O.Moshenskaya O.S.Arutyunyan.
- 10.Til o'rganish asoslari Yo.Nasirdinova
- 11.Mon guide de francais S.P Zolotnitskaya.